

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

Qarshi davlat universiteti

Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
kafedrası

Pedagogika-psixologiya fakulteti 5140700-Tasviriy san'at va
muhandislik grafikasi ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi Xolbekova
Baxtigulning “Тасвирий санъат” фани бўйича “MUSTAQILLIK
YILLARIDA O'ZBEK XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATINING RIVOJLANISHI”
mavzusidagi

KURS ISHI

kurs ishi rahbari : o'qituvchi N.O.Berdiyev

QARSHI-2012

Mavzu : MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEK XALQ AMALIY BEZAK SAN'ATINING RIVOJLANISHI

Reja:

KIRISH

- 1.O'zbekistonning eng qadimgi tasviriy va amaliy san'ati.
- 2.XX asr O'zbekiston tasviriy san'atida xalq amaliy bezak san'atining o'rni.
- 3.Xalq amaliy san'atining rivojlanishidagi muhim omillar.
- 4.Naqqoshlik va yog'och o'ymakorligi san'atining rivojlanishi.
5. Badiiy kulolchilik san'ati va kandakorlik.
- 6.Ganchkorlik. Xalq amaliy san'tining boshqa turlari.

KIRISH

1991 yilda e'lon qilingan Mustaqillik O'zbekiston tarixida yangi sahifa ochdi. Qisqa tarixiy davr ichida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurilishining mutlaqo yangi siyosiy asoslari yaratilishi bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy sohalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi.

Ana shunday milliy uyg'onish davrida O'zbekiston Prezidenta I.Karimov Mustaqillik bilan bog'lik barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar qatorida inson, ayniqsa yosh avlod ma'naviyati, erkin, ozod shaxs ma'rifatiga, madaniyat va san'atning rivojiga alohida e'tibor berdi. Zotan, takomil ma'naviy madaniyat va san'atsiz, milliy qadriyatlarni yanada yuqori bosqichga ko'tarmasdan turib, yangi jamiyatni, yangi ijtimoiy-tarixiy munosabatlarni va yangi dunyoqarashni barpo etish mumkin emasligi ayon bo'ldi.

"Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq, — deb yozadi Prezident I.Karimov — ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashni o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz".(I.Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" T., "Узбекистон,,)

O'zbekistonda yangi ma'naviy g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida, zamonaviy san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Tarixiy, madaniy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish g'oyalari, yangilanish tamoyillari me'morlik, tasviriy va amaliy bezak sohalarida, va san'atning boshqa turlarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shu maqsadda respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Respublikamiz hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yili «Ta'lim to'g'risida» Qonun va «Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur»i qabul qilindi. Unda «O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko'p asrlik an'analar, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi» deyilgan. Shu jihatdan olib qaralganda tasviriy san'atimiz, jumladan xalq amaliy bezak san'atimiz tarixi, uning

rivojlanish bosqichlari va bugungi kundagi erishgan yutuqlarini o'rganish nihoyatda dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

1. O'zbekistonning eng qadimgi tasviriy va amaliy san'ati.

O'zbek xalqining ko'p asrlik tarixida xalq amaliy bezak san'ati boy va rang-barang madaniy merosimizning eng ajoyib va ommaviy qismini tashkil etadi. O'zbek diyorida vujudga kelib gullab-yashnagan san'at turlari bemisl va betakrorligi bilan dunyoga mashhur. Bunday kamolot va taraqqiyot bosqichlari haqida fikr yuritadigan bo'lsak, o'zbek amaliy bezak san'ati turlarining shox ildizlari insoniyatning bolaligi, ya'ni ibtidoiy jamiyatga borib taqalishining guvohi bo'lamiz.

O'lkamiz zaminidagi tarix qatlamlarini qazishlar natijasida topilgan yodgorliklarning guvohlik berishicha, insonning jismga badiiy ishlov berish usulida buyum yaratish faoliyati tosh asridayoq boshlangan bo'lib, asrlar osha hozirgacha uzluksiz davom etib kelmoqda.

Inson ongli faoliyatining ajralmas qismi bo'lmish badiiy tafakkur va shunga muvofiq badiiy-ijodiy faoliyat insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday faoliyat natijasida kelib chiqadigan estetik-badiiy idrok qobiliyati kishilarda olamni, undagi mavjudotlar, narsalar va voqea-hodisalarni, atrof-muhitdagi shakllar va ranglarni turfa shakl-shamoilda qaytadan aks ettirishga havas uyg'otadi. Shakl va ranglar-ning real hamda stillashtirilgan tasvirlarini yaratish shu tariqa kelib chiqdi va u o'z navbatida, odamlarning

kundalik turmushlaridan o‘rin ola boshladi. Natijada badiiy bezaklarning xilma-xil shakllari va turlari paydo bo‘ldi. Boshqa san’atlarga nisbatan bunday naqshli bezaklar ko‘pligining va takomil topganligining muayyan tarixiy sabablari bor. Ma’lumki, Islom mamlakatlarida mavjudotlar tasvirini ishlash keng odat tusiga kirmagan, zero, mavjudotni yarata olish faqatgina qodir Tangriga hosdir, insonlar esa bunday ishni bajarishga ojizdirlar, inchunin, bordiyu biror ishni yuqori takomil darajasida ijro etish imkoni yo‘qligi avvaldan ma’lum ekan, bunday ishga kirishmoqlikning o‘zi aqldan emasdur.

Boshqacha aytganda, hech bir tasvir unda ifodalangan mavjudot darajasiga ko‘tarila olmaydi, shu bois tasvir soxta bo‘ladi.

Tasviriy san’atga bu qadar chuqur, falsafiy yondoshish natijasida shartlilik, stillashtirish, ramziylikka asoslangan badiiy bezak asarlari yaratish kuchaygan. Ushbu tarixiy omil o‘zbek milliy bezak san’atining gurkirab rivojlanishiga turtki bo‘lganki, xozirda jahonga mashhur me’morchilik yodgorliklarimiz ulardagi ganchkorlik, koshinkorlik, naqqoshlik, hattotlik, toshtaroshlik va boshqa turdagi san’atlarning ajoyib darajada uyg‘unlashgan mujassamligidan iboratdir.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Toshkent, Qo‘qon va boshqa shaharlardagi me’morchilik va xalq amaliy bezak san’ati yodgorliklari o‘tmish avlodlarimiz yaratgan barkamol, takrorlanmas va tarixan bebaho san’at asarlarining namunalari bo‘lib, xalqimizning va shu bilan birga jahon madaniyati durdonalaridan bo‘lgan badiiy va madaniy merosni tashkil etadi.

Xalq amaliy bezak san’ati kishilarning man’aviy olamini boyitadi, badiiy didini shakllantiradi, ruhiyatini tarbiyalaydi. Shuning uchun ham o‘zbek xalq amaliy san’ati kishilarni axloqiy, umuminsoniy tarbiyalab, ularilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda hamda madaniy darajasini yuksaltirishda eng zarur manbalardan biri hisoblanadi. Diyorimizning qadimiy tarixida bezak san’atining xilma-xil turlari mavjud bo‘lib, shulardan biri ganchkorlik san’atidir.

Ganchkorlik qadimiy san’at turlaridan biri bo‘lib, o‘z aksi husn-jamolini dunyo me’morchiligida, shu jumladan O‘rta Osiyo, Eron, Turkiya, Arabiston, Afg‘oniston va boshqa Sharq mamla-katlari me’morchiligida namoyon etib kelmoqda. Ayniqsa, O‘rta Osiyoda yaratilgan asarlar o‘ziga xos badiiyligi kompozitsiyasi va ishlanish uslubi bilan farq qiladi.

Ganchkorlik-sanatimiz faxri, beqiyos va bebaho xazina. Hech shubhasizki, uni chuqur o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Ganch o‘ymakorligi san’ati asrlar davomida o‘ziga xos uslub bilan rivojlanib keldi. Bu san’atning eng qadimgi, o‘rta asrlardagi va XX asrdagi rivojlanishini ko‘zdan kechirib, o‘rganib chiqsak bu davrlardagi ganch o‘ymakorligi bir-biridan mutlaqo farq qiladi. Qadimgi ganch

o'ymakorligi hajmiy bo'lib, realistik tasvirlar asosida ishlangan. Ularda ko'pincha odamlar, hayvonlar, qushlar tasviri ishlatilgan. Eramizning birinchi asrlaridayoq kishilar ganchni ajoyib xususiyatga ega ekanligini bilib, qal'alar, karvonsaroy va boshqa joylarni bezay boshlaganlar. Bo'lib o'tgan janglar oqibatida ular vayronaga aylanib, faqat qoldiqlari saqlanib qolgan.

III asrda Tuproqqal'aning serhasham saroy mehmonxonalari o'yma ganch bilan bezatilgan. Varaxsha shaharchasida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan va eramizdan avvalgi III — IV asrlarda ishlangan ganch o'ymakorligi namunasi topilgan. Unda o'simliksimon naqshlar, geometrik shaklli naqshlar ganchdan ishlangan.

Varaxshadagi topilmalardan VII—VIII asrlardagi Buxoro saroyi qoldiqlaridan namunalar topilgan. Bu topilmalarda qushlar, hayvonlar, baliqlarni, o'simliksimon va geometrik shakllarning o'yma namunalarini ko'rish mumkin. O'rta Osiyoni arablar bosib olgandan keyin islom dini hukmron bo'lib qoldi, u tirik mavjudotni tasvirlashni ta'qiqladi. Buni O'rta Osiyodagi arxitektura yodgorliklaridan ko'rish mumkin. Xususan VII—VIII asrlardagi hukmdorlarning Varaxshadagi saroylarida bu san'atning xilma-xil namunalari saqlangan.

Buxorodagi Ismoil Somoniylar maqbarasida ganch o'ymakorligi namunalari to'liqsimon ishlangan naqshlar topilgan. Unda o'simliksimon naqshning islimi turi ko'p ishlatilgan.

X—XI asrlarda naqqoshlik, yog'och, tosh va ganch o'ymakorligi yanada rivojlandi. Murakkab abstrakt tasvirni aks ettiradigan naqshlar paydo bo'ldi. Ganch o'ymakorligi ishlari uyning ichki va namgarchilik tegmaydigan tashqi qismiga ham

qo'llanilgan. Har xil geometrik shaklli qilib ishlangan bezaklar nihoyatda jozibador bo'lgan.

Xalq ustalari hayotdan olingan har-xil narsalar, gillar shakllarini stillashtirib, ganch o'ymakorligida ishlatganlar. Shu devorlarda o'ymaning chuqurligi 7 mm dan oshmagan. Uylarning tashqi qismiga namoyem, ustun va peshtoqlariga ganch uyma ishlatilgan. Farg'ona vodiysida XII asrda bezak sifatida har-xil plitkasimon o'yma ganch namunalari ishlatilgan. Bu binolarni ganch plitalari bilan bezatish keng avj olganligini ko'rsatadi.

Termiz maqbaralaridagi ganch o'ymakorlik san'atini o'sha davrning yuqori cho'qqisi desa bo'ladi. XII asrda muqarnaslar ■ (stalaktitg.ar) hosil bo'ladi va ko'pgina binolarda qo'llanma boshlanadi. Muqarnaslar oddiy ganch o'ymakorli-gidan farq qilib, ancha murakkabdir. U taxmon va boshqa joylarda bezak sifatida qo'llanma boshlandi. Binolarning ichki qismlariga ishlangan muqarnaslar ayniqsa ajralib turadi.

XIII asrda ganchkorlik san'ati yanada yuksaldi. Bunga Afrosiyobdvi topilgan ajoyib ganch o'ymakorligi ishlari misol bo'la oladi. XIV—XVIII asrlarda ham binolarning ichki tomonlarini bezatishda ganchkorlik san'atidan foydalanilgan. Bu davrlarda yangiyangi naqshlar yaratildi.

Binolarda ganch o'ymakorlign, uzviy boglaigan koshinlar va toshdan yasalgan bezaklar keng ishlatila boshlandi. Uning tashqari qismida esa juda kam qo'llanildi. Ganch o'ymakorligida mashhur bo'lgan XVIII asr ustasi Usta Mulla Obid, uning farzandi Muhammad Muso otasining kasbini qunt bilan egallab, o'sha vaqtda xalqqa tanilganlardan. Muqammad Muso o'g'illari Madusmon, Isoxon va Yusufalilar ganchkorlikda bir qancha vaqt ishlashgan, g'isht terishda ham obro' qozonishgan.

Afrosiyobda arxeo-LOGik qazishmalar natijasida X—XI asrlarda ISHLANGAN saroylarning qoldiqlori topilgan (6-rasm). Ayniqsa izora (panel) gachchi topilgan bo'lib, unda geometrik va o'simliksimon naqshning chuqur o'ymalari ishlatilgan. O'yma chuqurligi 2— 3 sm gacha borgan, naqshdagi qoramtir soya hisobiga u aniq oppoq bo'lib ko'rinib turibdi.

O'rta Osiyo naqqoshlik san'ati ham qadimdan dunyoga mashhur. O'tmishda ota-bobolarimiz qurgan muhtasham binolar hozirgi kungacha maftunkor jilvasini yo'qotmagan. Yuksak did bilan ishlangan naqshlar bizny hayratga solib kelmoqda.

Naqsh — arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'sillik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takror-lanishidan hosil qilingan bezakdir. Ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zar-do'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, inkurustatsiya, panjaralar va hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi.

O'zbekiston territoriyasidagi arxeologik qa-zilmalardan Xorazm, So'g'd, Baqtriya va boshqa viloyatlarda naqsh san'atining rivojlanganligi ma'lum. Olimlarimiz Surxondaryo viloyatidagi Fayoztepa (I-II asr), Dalvarzintepa (I asr) budda ibodatxonalari qazilmalaridan topilgan rasm, naqsh qoldiqlari orqali isbotlab berganlar. Xorazmdagi Tuproqqal'a zallari monumenttal naqshlar bilan bezatilganligi bizga ma'lum. VI—VII asrlarda ibodatxonalar, qasrlar va boylarning uylari o'yma naqshlar hamda tasvirlar bilan bezatilgan. Tantanali marosimlarga mo'ljallangan xonalardagi dabdabali ajoyib naqsh, rasmlarni ko'rib hayron bo'ladi kishi.

IX—X asrlarda O'rta Osiyoda naqqoshlik san'ati avj olib rivojlandi. Arxitekturada g'isht qalab naqsh solish yuksak darajada rivojlandi, binolarning ichki tomoniga ganch, yog'och o'ymakorligini qo'llash yuksak rivoj topdi. Ayniqsa maqbaralarning peshtoqlari devor va ravoqlar ganch-naqshlar bilan juda nafis bezatiladi. Naqshlar murakkablashib bordi. Ularning yangi nusxalarida ramz, tasvirlar, timsol, duo-af-sunlar, tasbih va boshqalar naqadar mo'ligini ko'ramiz. Ramziy naqshlar dunyoda sodir bo'layot-gan voqeliklar, tilaklarni aks ettirgan. Har bir chizilgan naqshda o'ziga xos ma'no bo'lgan. Chunonchi, o'simliksimon naqsh gulsapsarni olaylik, u osoyishtalik va umr uzoqlik timsoli, «pechak islimiy» naqshi boylik va farovonlikni, novda va yaproqlar esa to'kinchilik hamda bahor chog'ida uyg'onishni bildiradi. Musavvirning tasvirlari bu uning ona tabiatga bo'lgan muhabbatini bildiradi. Uning ranglari o'ziga xos ma'no

va xarakterga ega. Har bir naqsh negizida ma'lum ramziy ma'no singdirilgan. XI—XII asrlarda O'zbekiston territoriyasida arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, naqshlar ichida geometrik naqsh ko'p ishlatilgan.

XIV—XV asrlarda koshinkorlik rivojlandi, qurilgan binolarni koshin va parchinlar bilan bezatish avj oldi.

Yog'och o'ymakorligi ham o'zbek xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan bir turi. Bunda biror naqsh yoki tasvir taxta yoki yog'och buyumlarga chizib, kesib, o'yib, ishlanadi. Badiiy san'atning bu turi deyarli barcha xalqlarda bo'lib, qadimgi Sharqda antik dunyo mamlakatlari arxitekturasida keng ishlatilgan. Asrlar davomida Yevropa va Osiyo mamlakatlarida yog'och o'ymakorligining rivojlanib o'ziga xos badiiy uslublari kelib chiqqan. Shu singari O'rta Osiyoda ham yog'och o'ymakorligi qadimdan rivojlanib kishilarning uy-ro'zg'or buyumlarida va arxitekturasida juda keng qo'llanilgan. Bu o'ymakorlik qadimiy arxitekturaning eshik, dar-voza, ustunlar, har xil to'sin, stol, xontaxta, quticha, ramka, qalamdon va boshqa buyumlarni bezashda ishlatilib kelingan. Arxeolog olimlarimizning izlanishlaridan O'rta Osiyoda gorelyefli, ya'ni juda burtik (1 mm dan 20 mm gacha) relyeflar bilan har xil narsalarni yog'ochdan o'yib ishlanganligi ma'lum bo'ldi. Xalq yaratgan asarlar o'zining nafosati, murakkabligi, tabiiyligi bilan kishi aqlini lol qoldiradi. Afsuski, yog'ochdan ishlangan ajoyib yog'och o'ymakorligiga har qancha sifatli ishlov berilishiga qaramay asrlar o'tishi bilan ular namga dosh beraolmay deyarli ko'pchiligi chirib, yo'q bo'lib ketgan. Bularni arxeologik qazilmalarda topilgan va topilayotgan namunalari isbotlab bermoqda.

V—VI asrlarda yog'och o'ymakorligi namunalari Surxondaryo vohasidagi Yumaloq tepa tubidan topilgan. Olimlarimizning aniqlashicha bundan 1—1,5 ming yil muqaddam mazkur joyda naqsh o'ymakorligi san'ati bo'lib, u juda yaxshi rivojlanganligi isbotlangan. Bunday noyob topilmalar Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz va boshqa shaharlardagi arxeologik qazilmalardan topilmoqda.

VII asrning oxirigacha mahalliy uzbek xalqi ichida yog'och o'ymakorlik juda tez sur'atlar bilan rivojlangan edi.

IX—X asrlarda O'rta Osiyoda, shuningdek jumhuriyatimiz territoriyasida madaniyat o'sa boshlaydi. IX asrda Samarqand mustaqil davlat bo'lib qoldi. Xalq madaniyatida yangi burilish bo'ladi. Shu asrlarda buyuk olimlar, faylasuflar, yozuvchilar yetishib chiqdilar. Ular Abu Ali ibn Sino, Ro'daki, Firdovsi, Beruniy va boshqalardir. Ajoyib arxitektura yodgorliklari yaratildi. Masalan, jahonga mashhur Ismoil Somoniy maqbarasidir. Madaniyatning rivojlanishi yog'och o'ymakorligining yanada rivojlanishiga olib keldi. Yog'och o'ymakorligi bilan eshiklar, binolar, ustun, ravoq har xil xontax-talar bezatildi. O'ymakor ustalar o'zi yaratgan san'at asarlarida

timsol va duo-afsunlar, tasbih va tanosiblarning naqadar ko'pligini ko'rish mumkin. Har bir o'yma naqsh zaminida qandaydir ramziy ma'no yashiringan bo'ladi. Ular bu murakkab naqshlar orqali voqe'lik-dagi eng go'zal tilaklarni aks ettirib kelganlar.

XI—XII asrlarda xalq amaliy san'ati yanada gurkirab rivojlandi. Murakkab naqsh turi bo'lgan geometrik naqsh, ya'ni girih naqshi bezakda yetakchi o'rinni egalladi. Arxitektura uy ro'zg'or buyumlari yanada badiiy, nafis qilib bezatildi. Girih naqshi yanada rivojlandi. Masalan, XII asrga oid yog'och o'ymakorligi namunasi Samar-qanddagi Shohi-Zinda devorining orasidan topilgan bo'lib, u o'zining badiiy nafis va tabiiy ishlanganligi bilan kishini lol qoldiradi.

XIII asrda Chingizxon bosqinchiligi tufayli madaniy hayot izdan chiqdi. 1219—1221 yillarda mug'ul hukmdorligi ostida O'rta Osiyodagi Buxoro, Samarqand, Urganch, Balx, Mavr shaharlari ostin-ustun qilib tashlandi.

XIV asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo Temur boshchiligida biriktirildi. Temur va temuriy-lar davrida san'atning barcha turlari qatori xalq amaliy san'ati juda tez sur'atlar bilan rivojlandi. Ayniqsa yog'och o'ymakorligi ham yuqori cho'qqiga ko'tarildi. Amir Temur O'rta Osiyo madaniyati va san'atini rivojlantirish-da katta hissa qo'shdi.

«Amir Temur o'z poytaxti (Samarqand)ning qurilish va obodonligi uchun harakat qilish bilan bir qatorda Xuroson (Afg'oniston), Eron, Movarounnahr singari o'lkalardan eng mashhur hunarmandlarni, san'atkorlarni poy-taxtga to'pladi, nafis tasviriy san'atning naqqoshlik, me'morchilik, arxitektura, hattot-lik kabi san'at turlarini rivojlantirishda ulardan unumli foydalandi.

2. XX asr O'zbekiston tasviriy san'atida xalq amaliy bezak san'atining o'rni.

Shubhasis, XX asr O'zbek tasviriy san'ati uning an'anaviy amaliy bezatuvchilik san'ati bilan uyg'un holda rivojlandi. Xalq ustalari asrlar davomida asrab-avaylanib kelingan milliy san'atimizga qaytadan hayot baxsh etishib, uni yangidan-yangi jilolar bilan rivojlantirdilar.

XX asrniig boshlarida diplomat amaldor A. Polovsev Toshkentda yashardi. U sharq madaniyatiga juda qiziqar edi. Shuning uchuy u o'ziga yevropacha uy qurdirdi. Bino baland aydon, mehmonxona, yotoqxona va boshqa xonalardan iborat edi. A. Polovsev o'zbek xalqi san'atini yaxshi biladigan etnograf M. S. Andreyevni bezak ishlariga boshliq qilib tayinlaydi. U o'zbek xalqi san'ati namunalarini yig'ib, ularni o'rganishga hayotini baxshida etgan ajoyib etnograf olim edi. Bu binoni bezashga Toshkentdan tashqari Qo'qon, Buxoro, Farg'ona va boshqa shaharlardan ganch o'ymakorlar, yog'och o'ymakorlari va naqqoshlar taklif qilindi.

Shular jumlasidan Usta Shirin Murodov, Usta Arslochqul Nazarov, Usta Usmon Ikromov, Toshpo‘lat Arslonqulov va boshqa ganch o‘ymakorlar ham bor edi. M. S. Andreyev ganchkorlik ishlarini ustalarga taqsimlab berdi, chunonchi Toshkent ustalariga ayvon, mexmonxonaning sharqiy va shimoliy devorlari, tokcha, g‘arbiy va janubiy devorlarni bezatish Buxoro ustalariga topshirildi. 1902—1903 yillarda yevropacha qurilgan uy uzbek millim bezagida pardoz qilindi. Binoning ayvon, katta zali va yotoqxonasi juda jimjimador qilib bezatilgan. Ayniqsa, Toshkent ganchkorlarining ishlari o‘ziga xos xarakterda bo‘lib, o‘yma naqsh kompozitsiyasida katta shohbarg va to‘pbarglar yirik jimjimador qilib bezatilgan. Bu yerda pardozning hamma turlari qo‘llanilgan. Devorlarga o‘yilgan ganch o‘ymakor namoyonlar vertikal hamda gorizontall joylashtirilgan, atrofi geometrik, mayda ensiz zanjira, islami hoshiya naqshlar bilan bezatilgan. Namoyenlar xuddi yuqoriga qarab o‘sayotgan tabiat o‘simliklarini eslatadi. Pardoz turlari xonaga tushayotgan yorug‘lik hisobiga juda o‘rinli tanlangan. Derazadan tushgan yorug‘lik o‘ymani yanada badiylashtirgan. Namoyonga nazar tashlab turgan kishi xox, uzoqdan, xoh yaqindan qaramasin, u o‘ziga xos jozibaga ega ekanligini ko‘radi. Albatta, ustalar bularni avvaldan hisobga olganlar. Namoyenlar xuddi go‘zal tabiat manzarasining nafis tasvirini eslatadi. O‘yma ganch zaminlari ajoyib ranglarda berilgan. Bu bino XX asrning boshlaridagi eng ko‘zga ko‘ringan arxitektura yodgorligi bo‘lib qoldi. 1913—1914 yillarda Buxoroda amir Ahadxon tomonidan Sitorai Moxi-Xosa qurildi. U ganch o‘ymakorligi bilan bezatildi. Ayniqsa oq uy mehmonxona bezaklari o‘sha davrdagi ganch o‘ymakorligining ajoyib namunasi desa bo‘ladi.

Bunda oyna zaminida ganch o‘ymakorligi bajarilgan. U o‘zining nozikligi, jimjimador qilib bezatilishi bilan ajralib turadi. Mazkur saroyning bezak ishlarini Usta Shirin bajargan. U o‘sha davrda eng ko‘zga ko‘ringan ganchkor ustalardan edi.

O‘zbekistonda osori otiqalarni saqlash muassasalari Samkomstaris, Turkkomstaris, Sredazkomstaris, Uzkomstaris yodgorliklarni hisobga olish, o‘rganish ta‘mirlash bo‘yicha katta ishlarni boshlab yubordi. Toshkentda 1947 yilda g‘alabaga bag‘ishlab me‘mor A. Muxamedshin boshchiligida Kurant binosi qurildi. Bu qurilishni bezashda Usta Shirin Murodov qatnashdi. U naqsh kompozitsiyalarini yuqori badiiylilik bilan o‘yib bajardi.

Ganch o‘ymakorlik ishlari butun bino arxitekturasiga juda moye tanlangan. Kurant binosining sharafa, ustunlari, panjaralari o‘yma ganch bilan bezaldi. Sharafaning «Muqarnas» va «Iroqi» turlari bajarildi. teatr mutaffakkirning nomi berildi. Teatr binosini zamonaviy estetik talablarga asoslanib uzbek milliy an‘analarini saqlagan holda xalq hunarmand-ustalari bunyod etdilar. Teatrning bezak ishlariga barcha shaharlardan ustalar, naqqoshlar, rassomlar, ganchkorlar, toshkaroshlar va boshqalar kelishdi.

] Naqqoshlik maktablari.

Xiva, Qo‘qon, Buxoro xonliklari davrida xalq amaliy san‘ati ustalari shu shaharlarga yig‘ila boshladilar. XIX asr arxitektura yodgorliklarni kuzatsak, ular bir xil uslubda yaratilganligini ko‘ramiz. Chunki o‘sha vaqtlari naqqoshlar ish axtarib boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo‘yicha boshqa shaharlarga borib binolarni bezatar edilar. Ko‘pincha Farg‘ona va Buxoro naqqoshlari Samarqand, Qo‘qon, Marg‘ilon ustalari Toshkentga kelib ko‘pgina binolarni bezar edilar. Bu esa naqqoshlik maktablarining yanada rivojlanishiga o‘ziga xos kompozitsiyalarning yaratilishiga, ranglar majmuasini yanada boyitishda juda katta rol o‘ynadi. Lekin bu naqshlar bir-biriga o‘xshasada har bir shahar va har bir ustaning o‘ziga xos rang majmuasi, koloriti, uslubi, kompozitsiyasi jihatidan farq qiladi.

Farg‘ona naqqoshlik maktabi. Farg‘ona naqshi Xo‘jand, Marg‘ilon, Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Chust, Quva, Oltiariq va Rishton shaharlarida vujudga kelgan uslublardan iborat. XIX asr va XX asr boshlariga mansub bo‘lgan naqshlar ko‘plab osori atiqalarda saqlanib qolgan. Qo‘qondagi Madalixon dahasi va Dahai Shohon, Xudoyorxon o‘rdasidagi va boshqa naqshlar o‘ziga xos ko‘rinishga ega bo‘lsada, Farg‘ona naqshlarida ko‘proq Buxoro, Xiva naqshlarining ta’siri bor. Hattoki rus naqqoshlarining uslubi ham undamunda uchrab turadi. Chunki o‘sha vaqtlarda usta naqqoshlar ish axtarib boshqa shaharlarga borar edilar yoki buyurtma bo‘yicha boshqa shaharlarga borib, naqsh bilan binolarni bezatar edilar. Lekin Farg‘ona vodiysida o‘ziga xos naqqoshlik maktabi rivoj toptan edi. Farg‘ona naqqoshlari girix, o‘simliksimon (islیمی) va gulli girix naqshlarini bezaklarda qo‘llaganlar. Kompozitsiyalarning simmetriyali bo‘lish prinsipiga amal qilganlar. U boshqa naqqoshlik maktablaridan naqshlarining tabiatga juda yaqinligi, erkin ishlanishi, ranglarining kontrastligi bilan farqlangan. Bulardan tashqari Farg‘ona naqshlarida tabiatdagi gul, barg, g‘uncha va boshqalardan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanilgan. Chunonchi Farg‘ona naqshlariga qarasak, pista gul, anor, atirgul, majnuntol, bodomgul va boshqalarni ko‘rishimiz mumkin. Farg‘ona vodiylaridagi naqsh kompozitsiyalarning tabiatga juda yaqinligi Toshkent, Xiva va Samarqand naqshlaridan ajralib turadi. Farg‘onada naqqoshlar chetlari chiroyli qilib, ichiga islیمی shakl tushurilgan qizil, yashil bo‘yoqlar bilam turunjni afzal ko‘radi. Farg‘ona naqqoshlik maktabining na-moyandalaridan biri Saidmahmud Norqo‘ziyevdir.

Toshkent naqqoshlik maktabi. Toshkent naqshlari o‘zining nafisligi va rang-larning bir-biriga asta-sekin o‘tishi, aniq bir koloritga qat’iy rioya qilinishi, geometrik va o‘simliksimon naqshlarning ko‘p ishlatilishi bilan ajralib turadi. Naqshlar ko‘pincha yashil gammada ishlanadi. O‘simliksimon naqshlardan oygul, paxta, bofta, uch barg, shukufta, bargli gul va boshqa elementlar aniq stillashtirilgan. Murakkab geometrik naqshlar ishlanadi.

Naqqosh ustalardan Jalil Hakimov, Toyir To‘xtaxo‘jayev, Olimjon Qosimjonov, Yoqubjon Raufov, Anvar Ilhomov, Komil Karimov va boshqalar Toshkent naqqoshlik maktabining assoschilaridirlar.

Xiva naqshlari umuman madoxili naqshlar asosida tuziladi. Keyin esa islimiy naqsh spiralsimon mayda qilib ishlanadi. Xiva naqqoshchilik mak-tabining namoyandalari Abdulla Boltayev, Ro‘-zimat Masharipov, Odamboy Yoqubov, Eshmurod Sapayev va boshqalar.

Buxoro naqqoshlik maktabi. Buxoro naqshi hamma naqshlardan naqsh kompozitsiyalarining murakkabligi, mukammalligi va jozibadorligi bilan ajralib turadi. Buxoro naqshlarida murakkab girihlar aniq, puxta o‘lchamda ishla-tilishi o‘simliksimon naqshlarning o‘ziga xos san‘at bilan ishlangani naqshlarning yaproq, meva, gul barglar ritmiga alohida e‘tibor berilishi bilan farqlanadi.

Samarqand naqqoshlik maktabi. Samarkand naqshlari Toshkent, Farg‘ona naqshlariga o‘x-shab ketadi. Samarqand naqshlari o‘ta guldor-ligi barg va gullarining badiiy harakat-chanligi, jonliligi bilan farq qiladi. Unda murakkab girihlar, Farg‘ona naqshlariga o‘simliksimon naqshlari bilan aniq bir ritmik tak-rorlanuvchan naqshlar kompozitsiyasi bilan Toshkent naqshlariga o‘xshash. Avval zangori rang gammasida ko‘p naqsh bajarilgan bo‘lsa, hozir esa yashil rang gammasida ko‘proq naqshlar bajariladi. Samarqand naqqoshlik maktabini yaratishda «Usta Rahmonxol, usta Jamoliddin (Mirjamol), usta Mahmud, usta Abdujabbor, usta Abduzohid, usta Sharif, usta Aminjonlar katta xizmatlar qilganlar.

3. Xalq amaliy san‘atining rivojlanishidagi muhim omillar.

1991 yilda e‘lon qilingan Mustaqillik O‘zbekiston tarixida yangi sahifa ochdi. Qis-qa tarixiy davr ichida mamlakatimizda dav-lat va jamiyat kurulishining mutlako yangi siyosiy asoslari yaratilishi bilan birgalik-da ijtimoiy-iktisodiy va ma‘navii sohalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. Ushbu tarixiy yillarda tasviriy san‘atimiz, shuningdek, xalq amaliy san‘atimizning rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lgan Prezidentimizning ko‘plab farmon va qarorlari e‘lon qilindi. Bulardan, “O‘zbekiston Badiiy Akademiyasini tashkil etish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 23 yanvarlagi farmoni, “Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san‘atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31martdagi farmonlari shular jumlasidandir. Bundan tashqari, ana shu kabi farmon va qarorlardan kelib chiqqan xalq ustalari va hunarmabdlari mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularning ijodiy ishlari uchun to‘lanadigan soliqlardan ozod qilinishi, ko‘plab xalq uustalari

ijodining respublikamiz va chet ellada namoyish etilishlari uchun imkoniyatlarning kengaytirilishi, ularni rag'batlantirish kabi ko'plab tadbirlar, shubhasiz milliy san'atimiz rivojida benihoya o'rin tutadi.

Ana shunday milliy uyg'onish davrida O'zbekiston Prezidenta I. Karimov Mustakillik bilan bog'lik barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar qatorida inson, ayniqsa yosh avlod ma'naviyati, erkin, ozod shaxe ma'rifatiga, madaniyat va san'atning rivojiga alohida e'tibor berdi. Zotan, takomil ma'navii madaniyat va san'atsiz, milliy qadriyat-larni yanada yukori boskichga ko'tarmasdan tu-rib, yangi jamiyatni, yangi ijtimoiy-tarixiy munosabatlarni va yangi dunyoqarashni barpo etish mumkin emasligi ayon bo'ldi.

"Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq, — deb yozadi Prezident I. Karimov, ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobay-nida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'navii va madaniy merosni tiklash davlat siyo-sati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib koldi. Biz ma'navii kadriyat-larni tiklashni milliy o'zlikni anglashni o'sishidan, xalqning ma'navii sarchashmalari-ga, uning ildizlariga kaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb xisoblaymiz" .
".(I. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" T., "Ўзбекистон,,)

O'zbekistonda yangi ma'naviy-g'oyaviy yo'nalishlarning shakllanishi o'z navbatida, zamonaviy san'atning barcha sohalariga samarali ta'sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Tarixiy, madaniy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning keng qatlamlarini qayta idrok etish g'oyalari, yangilanish tamoyillari me'morlik, tasviriy va amaliy bezak sohalarida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Milliy tafakkurdagi tub yangilanishlar san'atimizni qayta idrok etish va uni ijtimoiy ongning bugungi darajasiga muvofiq san'atshunoslik ilmining talablari asosida baholash zaruriyatini takozo etadi.

4. Naqqoshlik va yog'och o'ymakorligi san'atining rivojlanishi.

1990 yillar O'zbekiston yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik san'ati tarixida yangi bosqich bo'ldi.

O'zbekiston yog'och o'ymakorlik va naqqoshlik maktablarini asosan Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarkand va Xiva maktablari tashkil etmoqda. Ushbu maktablarning texnik, uslubiy va kompozitsion tomonlarida ko'pgina o'xshashliklar bilan birga, farqli tomonlari ham mavjud. Masalan, Toshkent yog'och o'ymakorligida, "pargori" uslubi keng tarkalgan bo'lib, "pargor" yoki "pargol" so'zlarining o'zi uslubga qaraganda ko'proq naqshlar ro'yxati-ga mos ibora hisoblanadi. U sirkulda chizilgan degan ma'noni anglatadi. Shu sababli, yog'och o'ymakorligi

va naqqoshlik kompo-zitsiyalarida keng tarqalgan doyra yoki ayla-na ko‘rinishidagi nakshin gullarni "pargoriy" deb nomlashadi. Bu uslub deyarli hamma ustalarning asarlarida uchraydi. Lekin asrimizning boshlarida Toshkentlik usta S.Xo‘jayev ijodida u o‘zining yuqori cho‘qqilariga erishgan.

Farg‘onalik ustalarning naqqoshlik asarlarida "buta", "guldastalar"ga keng o‘rin beriladi. Lekin ular ushbu maktabda birmuncha yaxlit, naqshlarning orasi ochiq, yirik-yaxlit ko‘rinishlarda ishlanadi. Bundan tash-kari, Farg‘ona naqqoshligida Rishton kulol-chiligiga xos moviy bo‘yoqlar ko‘p ishlanib, unda asosan o‘simlik dunyosi naqshlari yetak-chilik qiladi. Chunki, aynan ularda mahal-

liy aholining "jannat bog‘i" va kosmogonik, diniy falsafa haqidagi tushunchalari o‘zining ifodasini topgan.

Samarqand va Buxoro yog‘och o‘ymakorligi ham ko‘p tomonlardan Xiva maktabining an‘analariga yaqin bo‘lsada, ushbu viloyatlarning naqqoshligi o‘zidagi kompozitsiya va ranglar majmuasi bilan Farg‘ona — Toshkent maktabiga yaqindir. Chunki, naqqoshlik san‘atidagi maktablar bir-biridan asosan naqshlar tizimi va har bir kompozitsiyaning tasvir-lanishi bilan farqlanadi. Masalan, Tosh-kentda o‘yiladigan gullarning orasi ochiq, tas-virlar birmuncha erkin bo‘lib ko‘rinsa, Xorazmda birmuncha zich, novdalarning orasida-gi bo‘sh joy koldirilmasligiga katta ahamiyat qaratiladi. U l ar da ishlatiladigan ranglar deyarli barcha viloyatlar uchun o‘ziga xos. Xiva maktabida ko‘p hollarda me‘morchilik koshinlarida keng tarqalgan mayda gul va novdalardan iborat islimiy naqshlar ko‘p uch-raydi (islimiy-morgula, islimiy-zanjira, islimiy-shobuta va boshqalar).

O‘tmishda xalq san‘atining boshqa turlari kabi yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshligi san‘atlarida ustalar asosan "usta-shogird" an‘anasi orqali tayyorlanadi. Bu an‘ana hozirgi davrgacha saklangan bo‘lib, shu bilan birga san‘atning ushbu turlariga sezilayotgan ehti-vojdan kelib chiqib, sohaga moslashtirilgan qator kollejlari ham professional ustalar tayyorlashga kirishdilar.(O‘zbekistan Badiiy Akademiyasining Toshkent shahri va viloyatlardagi tasviriy va amaliy san‘at bilim yurtlari).

90-yillarga kelib, mustaqil ijod bilan shug‘ullanayotgan "professional" xalq ustalarining aksariyati, markaz va uyushmalar tar-kibiga a‘zo bo‘lgan holda ijod qilmokdalar. Respublika maxsus ijodiy-ishlab chikarish "Usto" birlashmasiga a‘zo bo‘lgan ustalar Davlat ahamiyatiga molik yirik obyekt va qurilishlarda qatnashsalar, "Musavvir" va "Xunarmand" ilmiy-ishlab chikarish markaz-lariga a‘zolari uyda ijod qiladilar va mah-sulotlarini mana shu markazlar orkali tar-qatadilar. Markaz esa ularga metodik yordam ko‘rsatadi, ustalar ijodini keng omma ora-sida, respublika va xorijdagi yirik ko‘rgaz-malarda targ‘ib kiladi va hokazo.

Hozirda yog‘och o‘ymakorligi va naqqoshlik san‘ati o‘zining avvalgi davrlardagi mavqei-ni qayta tiklamokda. Toshkent shahri va res-publikaning boshqa yirik shaharlarida qurib, foydalanishga topshirilayotgan yoki qayta ta‘mirdan chiqarilayotgan qator diniy va dunyo-viy xarakterdagi qurilishlarda unga bo‘lgan talab kun sayin ortib bormokda. "Usto" bir-lashmasining Toshkent shahri va viloyatlar-dagi bo‘linmalarida ishlayotgan ustalar, oxir-gi o‘n yil orasida ko‘plab yirik obyektlarda muvaffaqiyatli qatnashdilar: O‘zbekiston Prezidentining "Oq saroy" qarorgohi (1998 — 99), Oliy Majlisning yangi binosi (1997), Temuriylar tarixi Davlat muzeyi (1996), "Turkiston" konsert zali (1994), Toshkent shahar hokimligining yangi binosi (1996 — 98), O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi binosi (1995), Bekobod shahridagi metallurgiya kombinatining oromgohi (1993), "Algoritm" zavodi (1994), Rossiya-ning Voronej va Moskva shaharlaridagi "O‘zbekiston" va "Namangan" magazinlari (1989 — 92), Uzbekiston Banklar Assotsiatsiya-si (2000), O‘zbekiston Tashki ishlar vazir-ligining qabul l ar uyi (1993), O‘zbekiston Prezidenti Apparatining Matbuot markazi (1998), "Yunusobod" tennis korti (1994), "Gu-liston" sport majmuasi (1997), Davlat "Sirk"i binosi (1999), "Sheraton — Toshkent" mehmonxonasi (1999), "Xotira maydo-ni" (1999), Uzbekiston Respublikasining Hindiston (2000), Germaniya (2000), Malayziya (1993) davlatlaridagi elchixonalarining binolari, Toshkent shahridagi Sayilgoh ko‘cha-sidagi choyxona ayvoni, Samarqand viloyati-dagi Imom al-Buxoriy, Farg‘ona viloyatida-gi Ahmad al-Farg‘oniy majmualari (1998) va boshqalar.

M.Ibrohimovaning Oliy Majlis binosi uchun ishlagan eshiklari Malayziyadan kelti-rilgan palma daraxtidan (subtropik zona) tayyorlangani sabab, faqatgina an‘anaviy be-zak vazifasini bajarib qolmay, zamonaviy boshqa talablarga xam javob berdi. Ular 2,5x8,2 m., qalinligi 40,5 sm. o‘lchamda bo‘lib, sirtiga asosan "o‘simlik-islmiy", "gajak-simon" va "zanjira" naqshlarining turlari o‘yilgan.

Oliy Majlis binosining markaziy Maj-lislar zalida, Toshkent naqqoshlik maktabi-ga xos bo‘lgan "kundal"ning xuddi Temuriylar tarixi Davlat muzeyi gumbazidagi vari-anti uchraydi. Keyingi yillarda gumbaz l arii bezashda moviy rangdan umumiy fon tari-qasida foydalanish ommalashib ketdi. Asli-da, ushbu holat zamonaviy jarayonda yangilik emas. XV —XVI asrlardagi Temuriylar davri qurilishlaridagi gumbazlarda boshqa ranglar qatorida moviy rang yetakchilik kilgan. Shu bilan birga, "kundal" XIX asrning oxiri — XX asrning boshidagi qurilishlarda asosan tillaqalda bajarilardi. Hozir esa ustalar-ning texnik imkoniyatlarining kengayishi oqibatida tilla suvidan foydalanmoqdalar.

Farg‘ona naqqoshligida ham xuddi Tosh-kentda bo‘lgani kabi, ko‘p uchraydigan element-larni "mehrob", "madohil", "bodom" va "buta" naqshlari tashkil etadi. Undagi asosiy

naqshlarning atrofida yordamchilari — "chorgul", "shobarg", "oygul", "zanjira" naqshlari tur-lari hamkorlik qiladi. Naqqoshlik san'a-tida ijod qilayotgan har bir usta, amaliyot davomida, mavjud an'analarni o'zlashtirib, ish jarayonida klassik naqshning juda ko'p ko'rinishlariga muvaffaq bo'ladi. Naqshdagi bir arzimagan chiziq ham naqshning shakl-shamoyilini yoki tasvirdagi mazmun-mohiyat-ni tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. 90-yillardan boshlab qurilayotgan bir qancha madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish binolarida va maishiy xarakterdagi buyumlardagi naq-qoshlikda ushbu vaziyat namoyon bo'lmoqda.

Ikkinchi jahon urushi kezlari halok bo'lgan hamyurtlarimiz uchun qurilgan "Xoti-ra maydoni" xam yirik obyektlar qatoriga kiradi. Obyektning g'oyaviy mazmuni bo'yicha, unda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Uzbe-kistonning hamma viloyatlari uchun maxsus pavilyonlar ajratilgan bo'lib, ularning har birida urushga ketib, qaytmagan kishilarning ism-shariflari ko'rsatilgan.

Maydonning ikki tomonida usti yopiq, har bir tomoni 17 yog'och ustundan iborat ayvon-lar mavjud. Undagi yog'och o'ymakorligi naqshlari turli maktablarga taalluqli.

"Xotira maydoni" Mustakillik maydonidagi ochiq maydonda joylashgan. Obyektning atrofidagi tabiat manzarasi bilan bog'lik-ligini saqlab qolish maksadida, undagi "qosh", "havoza", "vassa" va boshka qismlar uchun o'simlik-islmiy naqshining bir kancha turlari tanlab olingan. Shu orqali mual-liflar tabiat bilan obyekt orasidagi o'zaro uyg'unlashuvni saqlab qolishga muvaffaq bo'lganlar.

Bundan farqli o'laroq, Samarkand viloya-tining Chelak tumanida kad roslagan Imom al-Buxoriy majmuasida boshqacharok manzara uchraydi. Majmua butkul me'morlik san'a-tining namunasi bo'lib, u o'z navbatida naq-qoshlik, ganchkorlik va toshtaroshlik san'at-larining uyg'unlashuvidir. Masjit majmuadagi yog'och o'ymakorligi asarlarini yuqoridagi "Xotira maydoni" da bo'lgani kabi, ustun-peshtoqlar, hamda 3,60x5,5 metrdan iborat katta darvoza tashkil etadi. Darvoza M.Ab-rorov boshliq guruhning mahsuli bo'lib, u yog'och o'ymakorligining "choka pardoz" va "lo'la pardoz" uslublarida bajarilgan.

Zamonaviy sayyohlikning rivojlanishi oqibatida, sovg'abop buyumlar ishlab chiqarish ham kun sayin ommalashmokda. Bunda "Musavvir" ilmiy-ijodiy-ishlab chiqarish markazi a'zolari - O.Fayzullayev, A.Azlarov, E.Aliyev, A.Saydaliyev, Z.Alimboyev, S.Rahmatullayev, M. Jalolov, H.G'aniyevlarning, naqqoshlardan - M.To'rayev, A. Ilhomov, S.Mah-mudov, Q.Shoislomov, A.Asqarov asarlarini eslab o'tish maqsadga muvofiqdir. Bu ustalar nafakat respublika balki xorij ko'rgazmalarining ham faol katnashchilari (Germaniya, Yaponiya, Shveysariya, Turkiya, AQSH, Buyuk Britaniya, Belgiya, Hindiston, Yaponiya va boshqalar).

O.Fayzullayevning asarlarida an'anaviy o'simlik naqshlari bilan birgalikda geometrik naqshlarga ham keng o'rin beriladi. Us-taga 1995 yil 26 oktabrda Toshkent shahrida o'tkazilgan birinchi respublika xalq amaliy san'ati yarmarkasida "Xalq ustasi" sertifikatga berildi. Shu bilan birga, 1994 yili Pokistondagi 46 musulmon mamlakatlari qat-nashgan amaliy san'at ustalari festivalida O.Fayzullayev to'rtinchi faxriy o'rinni egallab qaytdilar.

A.Asqarovning naqqoshlik asarlarida nafaqat vodiy, balki O'zbekiston naqqoshligi-ning yetuk ustalari O.Qosimjonov, T.To'xta-xo'jayev, J.Hakimov, Z.Qodirovlarning eng yaxshi an'analari davom etmoqda.

Ushbu manzaradan ko'rinib turganidek, oxirgi o'n yil mobaynida yog'och o'ymakorligi va naqqoshlik san'ati haqiqatan ham rivojlanib, unutilib borayotgan ba'zi uslublarini qayta tiklayotgani, naqshlarning ro'yxati yil sayin kengayayotgani va islimiyning bir necha turlari uyg'unlashayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Birgina yuqorida keltirib o'tilgan "pargori" uslubini olsak, u XIX — XX asrning boshlaridagi Toshkent maktabida ayniqsa mashhur bo'lib, so'nggi paytlarda esa deyarli qo'llanilmayotgandi. Hozir esa u qayta tiklandi. Xom ashyolardan mahalliyilariga bo'lgan talab katta: yong'oq, chinor, qayra-g'och, nok, o'rik. Chetdan keltiriladiganlari orasida Ruminiya buki, dub kabi yog'och sortlari ham ko'p ishlatilmoqda.

Ustalar yuqoridagilar bilan birga, buyurtma bo'lgan taqdirda, asosiy yo'nalishlaridan tashqari, iste'molchining talabidan kelib chiqqan holda, xohlangan o'lcham va uslubdagi buyurtmalar ustida ham ishlamoq-dalar. Yevropa andozalaridagi bufet, tryumo, servant, stol va stullarning to'plamlari fik-rimizning dalilidir. Ularda o'yiladigan naqshlar an'anaviy yoki buyurtmachi tomonidan takdim etilgan chizmalar asosida, yevro-paliklarning amaliy san'atiga xos naqshlar ham bo'lishi mumkin.

Shular bilan birgalikda, O'zbekiston hukumati xalq san'ati va hunarmandchiligi an'alarini asrab-avaylash borasida ham ko'pgina xayrli ishlarni amalga oshirdi.

Ustalarning daromad solig'i va boshqa boj-xona to'lovlaridan besh yilga ozod qilinishlari xalq hunarmandlari qatorida yog'och o'ymakorligi bilan shug'ullanadigan ustalarga qator qulayliklarni yaratmoqda.

5. Badiiy kulolchilik san'ati va ganchkorlik.

O'zbekiston amaliy san'atining qadimiy, shuningdek, bizning davrimizgacha o'zining anik chegaralangan maktab hamda an'alarini saqlab kelayotgan turlaridan biri badiiy kulolchilik hisoblanadi. Zamonaviy kulolchilik san'ati XIX asrda tarixan shakllan-gan maktablarning an'anasi asosida rivojlanib kelmokda.

Ma'lumki, o'zbek kulolchilik san'ati kadimiy davrlardan shu kungacha keng tarqalgan va aholi ehtiyojlarini qanoatlantirib kel-gan, muhim kasb-hunar sohasidir. O'zbekis-ton jabhasida

qadimdan har vohaning hunar-mandchilik markazlari vujudga kelib shakllangan. Bu markazlarda xalk ehtiyoji uchun eng kerakli sopol buyumlar ishlab chiqarilgan va sotilgan.

Hozirgi vaqtda badiiy bezatish uslubi, plastik va texnologik xususiyatlari bo'yicha uchta asosiy kulolchilik maktablariga bo'lish mumkin: Farg'ona badiiy kulolchilik maktabi (asosiy markazlari - Rishton, G'urumsa-roy); Buxoro — Samarkand badiiy kulolchilik maktabi (asosiy markazlari - Samarkand, Urgut, G'ijduvon, Uba, Shahrisabz); Xorazm badiiy kulolchilik maktabi (asosiy markazlari Madir va Kattabog' kishloqlari). Har bir maktab o'zining rivojlanish va ijo-diy tamoyillari, yetakchi markaz va ustalari, boshqa maktablardan farklovchi xususiyatlari bilan belgilanadi. Ular o'z qonuniyatla-ri doirasida faoliyat ko'rsatadi va asosiy badiiy tamoyillari umumiylikni saklab keladi.

Farg'ona badiiy kulolchilik maktabining asosiy xususiyatlari uning aholi etnik tarkibi, joylanishi va tarixiylik tamoyillari bilan bevosita bog'likdir.

Rishton - Farg'ona maktabining an'anala-rini o'zida mujassamlashtirgan eng yorqin kulollik markazidir. Keyingi 30-40 yil ichida (1970 yillardan boshlab) Rishton sopoli an'-anaviy badiiy va texnologik usullar asosida qayta tiklandi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Rishton — Uzbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimgi markazlardan biri edi).

Ishqorli sir tayyorlash xam yo'lga qo'yildi. Xozirgi vaktida bu yer da sopol idishlar-ning yapalok (kosalar, laganlar) va uzun bo'yli (ko'zalar, xumlar) turlari ishlab chikaril-mokda. Ilgari ishlar ixtisoslashgan tarzda bajarilardi - yapaloq buyumlarni, ya'ni yapa-loq va qiska bo'yli shakllar yasovchi usta-lar - kosagar; baland, bo'yi cho'zilgan buyumlarni yasovchi ustalarni - ko'zagar deyishgan. Hozir bunday tasniflash ilgarigi mohiyati-ni yo'kotgan; ayrim ustalar (I.Komilov, U.Ashurov, X.Sattorov, K.Qosimov, M.Azi-zov, A. va M.Tojaliyevlar va boshqalar) ham yapalok, xam cho'zinchok shaklli idishlarni yasashadi. Ayni paytda bir qator kulol-lar, asosan, o'rta va yosh avlod vakillari (SH.Yusupov, A.Nazirov, A.Isokrv, A.Usmo-nov, M.Saidov, R.Usmonov va boshqalar) ko'prok yapalok idishlar - laganlar yasash bilan shug'ullanishadi. Rishton maktabida bu-yumlar shakllarining nihoyatda rang-barang-ligi ko'zga tashlanadi. Bu yerda laganlarning xar xil turlari uchraydi, kosalarining turli variantlari - kosa, shokosa, ko'shquloq, don mahsulotlari uchun katta xumlar ishlab chi-qariladi. Bunday buyumlarning ishlab chiqa-rilishi keyingi 25 — 30 yil davomida kayta tiklandi va yanada nafis ko'rinishlarga ega bo'ldi.

Rishton sopolchiligining mahalliy badiiy xususiyatlari ko'p jihatdan buyumlarga naksh berilishida ko'zga tashlanadi. Uning naqshlar majmui boy va rang-barangdir. O'zbekiston kulolchiligida ishlatiladigan naqshli bezak-lar majmuini - handasaviy va o'simliksi-mon

bezaklar, ramziy belgilar, buyumlar tas-virlari, hayvonlar va antropomorfik mavzular tashkil qiladi. Bir qator ustalar (A.Nazirov, A.Usmonov) yapaloq buyumlarga chirmashib ketgan arab yozuvlari orqali bezak bera boshladilar. 1990 yillardagi girih bezaklar orasida to'rsimon naksh ("chetan"), rombsimon naksh ("to'rsimon"), uchburchakli shakllarning bir maromda joylashtirilishi ("uchburchak"), doirasimon shakllarning zan-jir shaklida bir tekis berilishi ("zanjir",

"jingalak zanjir"), nuqtali naqsh ("no'xot"), qora va oq kvadratlarning navbat bilan o'rin almashishi shaklidagi naqsh, egri va to'g'ri chiziqlar shaklidagi, doiracha va tupbarggul shaklidagi mavhumiy-handasaviy bezaklar ko'p tarkaldi.

O'simliksimon naqshlar ayniqsa turli-tu-man va sermazmundir. Rishton kulolchiligida «chorbarg», uslub berilgan bodom guli - "bo-domgul", "anorgul", "barg", "anor", "sarv", o'simlik shoxlari - "islimiy" kabi mavzular ko'proq ommalashgan.

O'simlik dunyosiga oid mavzularni talkin qilishda, ayniqsa an'anaviy belgilar bilan bu mavzularning yangicha talqinlari nisbatan yaqqol ko'zga tashlanadi. Rishtonlik ustalar ilgari mavzular ko'rinishini xiyol o'zgar-tirish usuli bilan yangicha tuzilma yaratish yo'lidan borib, bezakning yangi obrazlarini tim-solida sayqallashishiga erishmokdalar. Bunday uslub SH.Yusupov ijodida, shuningdek kullorlar A.Usmonov, A.Nazirov, A.Isanov, I. Komilov va boshqalar asarlarida, ayniqsa yorqin namoyon bo'lmokda. "Bodomgul" va "anor" kabi mavzularning talkin qilinishida tez-tez o'zgarishlar kilib turiladi, ular bir tekisda zich qilib joylashtirilishi tufayli ko'pincha idishlarga bezak berishda yetakchi o'rin tutadi.

Buyumlarning tasvirlanish usuli orasida Rishton, shuningdek Gurumsaroy kulolchiligi uchun "qumg'on" mavzui eng ko'p tarkalgan va o'ziga xos xususiyatga ega. Bunday bezak bir necha o'n yillik davomida, XIX asr oxiridan boshlab yapaloq idishlarning tubiga ishlangan. Rishtonlik ustalar qumg'on bilan bir qatorda Farg'ona pichoqlarini ko'pincha qumg'on bilan uyg'unlikda tasvirlaydilar. 1990 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab rishtonlik ustalar ayrim buyumlarning bezaklari sifatida an'anaviy me'morchilik majmualari - minoralar, masjidlar, madrasalarning ma'lum bir ko'rinishidan ham foydalanmokdalar.

Hayvonot olamiga oid va antropomorfik mavzular Rishton kulolchiligida "parchasi yax-lit uchun" tamoyiliga ko'ra takdim etilgan, unda inson yoki hayvonlar va parrandalar gavdasining ayrim unsurlari yordamida yax-litlik g'oyasi aks ettiriladi. Masalan, "chashmi bulbul", "parchashsha", "ilon izi", "ho'kiz shoxi" kabi bezaklar ana shunday ishlangan. Ba'zan bunday naqsg'dli mavzular bir-biri bi-

lan uyg'unlashib, rishtonlik ustalar buyumlariga betakror timsol baxsh etadi.

An'anaviy shakllar va naqshlarni izchillik bilan to'lakonli kilib qayta tiklash, an'analarga so'zsiz rioya qilish o'rnini yakka tartibdagi ijodiy tashabbuskorlik, yangicha usul va naqshin bezaklar turlarini kengaytirish egallab bormoqsa.

Xozirgi paytda Rishtonda 1000 dan ortiq kulollar ijod qilmokdalar. 1990 yillarning o'rtalarida ustalar Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburg shaharlarida qator ko'rgazmalarda qatnashdilar. Shulardan 130 tasi "Hunarmand" xalq ustalari Assotsiatsiyasining a'zolaridir. 1995 yilda Uzbekistan san'at muzeyi qoshida Rishton ustalarining "Moviy afsona" mavzuidagi katta retrospektiv ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Shu bilan birga, Yaponiyaning O'zbekistondagi elchixonasi ta'shabbusi bilan 1994 — 1996 yillarda bir qator rishtonlik kulollar ishlab chiqarish markazlari bilan tanishib keldilar. Koma-su shahridagi "Kutani" kulollik markazida bo'lib, Asakura-san kulolchilik muzeyida Rishton kulolchilik maktabi namunalaridan iborat doimiy ekspozitsiya tashkil etildi. A.Nazirov an'anaviy "Tashabbus -2001" tanlovi-da "ilning eng yaxshi hunarmandi" nomina-siyasi bo'yicha 1-o'rinni egalladi.

O'zining g'aroyib havorang sopoli bilan mashxur bo'lgan Farg'ona maktabining yana bir markazida — G'urumsaroyda ilgari ming-lab ustalar ishlagan. 1990 yillarning bo'shida bu yerda faqatgina bir usta - Maqsud-ali Turopov qolgan edi.

G'urumsaroy kulollik markazida Farg'ona maktabining qadimiy kulollik an'analari ko'p darajada saqlanib qolgan. Bu sopol buyumlarning ishlanish texnologiyasidan badiiy bezatish jarayonigacha namoyon bo'ladi. G'urumsaroy bezaklari Rishton kulollik markazi bezaklaridan ishlanish uslubining alohida-ligi bilan ajralib turadi. G'urumsaroy sopol buyumlarida bezakning mahobatli oydin-ligi va soddalik hosdir. Yana bir o'ziga xos xususiyati bu bezaklarning uzoq o'tmishga taalluqli (arxaik)ligidadir. Odatda bu naqshlar ko'p emas, asosan uch-to'rt xil quyidagi yo'sin o'zgarishlarni uchratish mumkin ("qumg'on", "chorbarg", "butsimon bezak", "ko'p burchakli yulduzsimon bezaklar"). Buyumlarning shakli va turlari xam o'ziga xos - diametri yarim metrga yetadigan yirik laganlar, o'rtacha hajmdagi kosa va yuzali idishlar, qo'shquloqlar (keng bo'g'izli va ikki quloqli kosalar). G'urumsaroy sopol buyumlaridagi ko'kmoviy, lojuvard, zangori hamda jigarrang bo'yoqlar gammasi — G'urumsaroy ustalarining an'anaviy ishqorli sirdan foydalanganligidadir. M.Turopov ishqorli sir buyok olish uchun zarur "gulak" o'tini yig'ishtirishdan tortib, qo'lda qoliplash va naqsh chizishgacha barcha ishlarni faqat an'anaviy usulda bajargan. Ana shunday universallik G'urumsaroy kulollarining ijodini belgilovchi qadimiy xususiyatdir.

6. Ganchkorlik. Xalq amaliy san'atining boshqa turlar.

O'zbekiston ganchkorlik san'atidagi asosiy maktablar XIX asrga kelib, shakllana boshladi: Toshkent, Farg'ona, Xorazm va Bu-xoro.

Ma'lumki, ganchkorlik san'ati xalq ama-liy-bezak san'atining boshqa turlariga Karaganda, me'morlik san'ati bilan uzviy bog'liq. Uning azaliy xomashyosi, ishlov berilgan alebastr bo'lib, ish jarayoni (katta obyektlarda) ko'p kishilarning mehnatini talab qiladi.

Dastlab, qurilishlarda mahalliy maktablarga xos, an'analar bilan bog'lanish kuchli bo'lgan. Toshkent maktabida keng tarqalgan kompozitsiyalar (o'simlik-islamiy) farg'onalik ustalarning ishlariga yaqin bo'lib, ko'pincha "o'simlik-zanjira" turkumidagi naqshlarni tashkil etadi. Ularning o'yilishi ham bir-muncha chuqur bo'lib, ba'zi hollarda ganchning umumiy foni bo'yaladi (hozirgi kunda ayniqsa ommalashib bormoqda).

Buxoro maktabi ganchkorligining texnik jarayoni birmuncha murakkab. Unda usta Shirin Murodov tomonidan kashf etilgan — oyna ustiga ganch ishlash keng tarqalgan. Toshkent maktabidan farqli o'laroq, Buxoroda o'simlik naqshlari bilan birgalikda geometrik shakllar (aylana, ko'pburchak, kirrali shakllar va hokazolar) ham ko'p ishlatiladi. Xivada qo'llaniladigan kompozitsiyalar mayda gulli naqshlardan iborat bo'lgani sabab, ular tekislikda chuqur o'yilmaydi.

1990 yillardan boshlab, foydalanishga topshirilayotgan obyektlarda asosan "Usto" birlashmasining ustalari faoliyat ko'rsatmoqdalar. Birlashmada hozir M.Murodov, H.A6-dullayev, A.Sultonov, A.Po'latov, M.Rahmatov, A.Muxtorov, H.Azizov va boshqa yirik ustalar boshliq guruhlar ishlayotdalar. Ularning ijodiy namunalarini O'zbekiston Prezidentining "Oqsaroy" qarorgohi (1998 — 99), Temuriylar tarixi Davlat muzeyi (1996), "Turkiston" konsert zali (1994), "Yunusobod" tennis korti (1994), Davlat "Sirk" binosi (1999), Toshkent shahar hokimligining yangi binosi (1996 — 98), Rossiyaning Voronej va Moskva shaharlaridagi "O'zbekiston" va "Namangan" magazinlari (1989 — 92), O'zbekiston Banklar Assositsiyasi (2000), O'zbekiston Prezident apparatining Matbuot markazi (1998), "Guliston" sport majmuasi (1997), O'zbekiston Respublikasi-ning Hindiston (2000), Malayziya (1993) davlatlaridagi elchixonalarining binolari, qolaversa, Samarkand viloyatidagi Imom-al-Buxoriy, Farg'ona viloyatidagi Axmad al-Farg'oniy majmualari (1998) va boshqa yirik obyektlarda uchratish mumkin. Shu bilan birga, ustalar qayta ta'mirlanayotgan binolarni ham tiklash jarayonida qatnashmoqdalar (Sayilgoh ko'chasidagi choyxona, Markaziy universitet, Toshkent metropoliteni bekatlari, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi binosi, O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligining qabullar uyi va hokazolar).

"Usto" birlashmasi ustalari nafaqat respublika hududida balki Yaqin va Uzoq xorijning qator mamlakatlaridagi restoranlarni, choyxona va shaxsiy uylarni bezashda qatnashishlari,

ularning ijodiy namunalariga bo'lgan talab Xalqaro miqyosda ekanligini ko'rsatadi (Germaniya, Shveysariya, Turkiya, Rossiya, Malayziya, AQSH va 6.).

1990 yillardan boshlab, jahon andozalariga javob beradigan binolarni qurish ommalashib bormoqda (Bank, supermarket, mehmonxona, shasiy uy, dala hovlilari, kottedj va hokazolar). Ammo, ganchkorlik namunalari faqat milliy uslubdagi mehmonxonalarni butkul bezashda, qolgan paytlarda esa faqat interyerlarning ba'zi bo'laklarini bezashda qo'llanilmoqda (friz, devordagi na-moyonlar, hoshiyalar va b.).

Me'morlik bilan birgalikda turli kattalikdagi (o'lchovdagi) namoyonlar ham ishlanib kelinmoqda. Lekin ularning aksariyati ko'rgazmalar yoki maxsus buyurtmalar uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, ganchdan qolip yasash asosida ham katta kompozitsiyalar uchun bo'laklar quyilmoqda. Bu uslub katta obyektlar ustida ish olib borilayotganda ayniqsa qo'l keladi. Ushbu yo'nalishda ijod qilayotgan ustalarning aksariyati "Musavvir" ilmiy-ishlab chiqarish markazi qoshida faoliyat ko'rsatmoqdalar: I.Ahrorov, B.Ismatullayev, Y. Odilov, O.Zokirov, M.Usmonov va boshqalar. Ustalar orasida M. Usmonovning asarlari ayniqsa diqqatga molik. Toshkent ganchkorlik san'atining eng yaxshi an'analari uning asarlarida o'z aksini topgan. Usta ishlagan namoyonlardagi naqsh chizmalarining aniq va lo'ndaligi, o'yish ishlarini mukam-mal-tozaligi M.Usmonov san'atini badiiy tomondan yuqori ekanligini ko'rsatadi.

1991—2010 yillarda O'zbekiston ganchkorlik san'ati azaliy an'alariga suyangan holda rivojlanmoqda. Hozirda ijod qilayotgan ustalar, mahalliy maktablardagi mavjud an'analarni asrab-avaylagan holda ijod qilayotganliklarini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Ganchkorlik san'atidagi mahalliy maktablarda keng tarqalgan unsurlarni amaliy san'atning boshqa turlaridagi naqshlar tizimi bilan aralashib ketmasligi, mavjud texnik jarayonlarni asl holicha saqlanib qolinganligi haqida dalolat beradi.

1997 yilda M.Usmonov O'zBA Faxriy a'zosi etib saylandi. A.Umarov esa ganchkorlik san'atidagi ijodiy yutuqlari tufayli 1999 yilda O'zbekiston Badiiy Akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylandi.

Ma'lumki, XIX —XX asrlarda O'zbekiston **pichoqchilik** san'atida bir qator maktablar vujudga kelgan.

1990 yillarda hunarmandchilikning ushbu pri Chust, Xiva, Andijon, Shahrison, Qorasuv, Qo'qon, Samarkand kabi shaharlarda rivojlanib kelmokda. Zamonaviy ustalar ma-xalliy maktab xususiyatlarini o'z asarlarida gula aks ettirishga erishmoqdalar. An'anaviy bo'lgan guldon pichoqlar, qadama ma'dan-lar, naqshlar bilan bezatilgan charm qinga solingan bo'lib, ustalarning mahoratidan, no-zik dididan dalo lat beradi. Pichoqsozlikda ishlatiladigan asosiy xom ashyolar -

temir va po'lat; pichoq qinini tayyorlashda esa teri, yog'och, gaz lama; pichoq bandi uchun yog'och, mol shoxi, fil suyagi qo'llanilmoqda. Ushbu qadim-gi san'at turi yirik va mashhur pichoqchilik markazlaridan biri bo'lgan Chuet shahrida rivojlanib kelmokda. A. Abdurahimov, N.Da-minjonov, M.Olimjonov, R.Rahimov, R. Qun-duzov, E.Mahmudov, K.Maxmudov kabi ustalar Chuet pichoqchiligiga xos bo'lgan badiiy uslubni saqlagan holda rivojlantirmoqda-lar. Ularning pichoqlari turli shaklda qilingan: tig'lari ingichka va uzunroq, ko'pincha tig'ining uchi teskariga qayrilgan bo'lib, sopi yog'och va suyak, qadama naqsh bilan boshqa maktab l ar dan farq qiladi.

Qo'qon lik O.Umarov, O.Qobilov, K.Ahro-rov kabi ustalarning pichoqlari badiiy an'anaga ko'ra tig'i qalin, dastasi sərbastali bo'lib, mahalliy maktabning o'ziga xos jihatlarini namoyon qiladi.

Andijonlik A. va T.Muhiddinovlar, T.Boirov kabi ustalarning pichoqlari suqma sopli, o'tkir dastali, siyrak gulliligi bilan ajralib turadi.

Kashtachilik - O'zbekiston amaliy bezak san'ati turlari orasida o'zining qadimiy an'analariga ega bo'lgan san'at turi hisob-lanib, O'rta Osiyoning yirik savdo-hunarmandchilik markazlari va qishloqlarida keng tarqalgan. Kulolchilik, badiiy kandakorlik san'ati bilan erkaklar mashg'ul bo'lgan bo'lsalar, kashtachilik bilan asosan ayollar shug'ullanishgan. Shuning uchundir, san'atning ushbu turi o'zining poetik xususiyatlarini saqlab qolish bilan birga, xalq orasida hozirgacha qadrlanib, o'z mohiyati-ni yo'qotgani yo'q. Kashtachilik asarlari mahalliy halqning bayramlari, to'y marosimlarining ajralmas qismi sanalib, turmushga chiqayotgan qizlar uchun beriladigan "sep"ni o'zlari tayyorlashgan. Bu orqali ular mehnatga bo'lgan munosabatlarini ko'rsatib, estetik go'zallikka bo'lgan moneliklarini ifodalaganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., "O'zbekiston", 1997.
2. S. Bo'latov. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent, Mehnat, 1994 yil.
3. Abdullayev N.U. "San'at tarixi" . 1-tom. Toshkent. O'qituvchi, 1986 yil.
4. Abdullayev N.U. "San'at tarixi" . 2-tom. Toshkent. San'at, 2001 yil.
5. Oyidinov N. "O'zbekiston tasviriy san'atidan lavhalar" Toshkent, O'qituvchi. 1997 yil.
6. M. Mirzahmedov. Boshlang'ich badiiy naqsh ishlash uslubiyati. Toshkent, "Ўзбекистон,, 2002 yil.
7. Hasanov Rahim. Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlari metodikasi. Toshkent, 2003 yil.
8. S. Abdurasulov, N. Tolipov. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. Toshkent, 2007 yil.
9. S. Bo'latov, N. Tolipov. Go'zallik falsafasi. Toshkent, 2008 yil.
10. S. Abdurasulov, B. Boymetov. Tasviriy san'at. Toshkent, 2006 yil.
11. Nigmatov B.v, Ermatova A.B. Naqshi nigorlar. Toshkent, 2010 yil.
12. O'zbekiston Badiiy Akademiyatsi nashri. "O'zbekiston san'ati" majmuasi. "Sharq" nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh taxririya. T. 2001.
13. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi nashri. "San'at" jurnali.
14. Usmonov O. Kamoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1977 yil.